

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.11/25.08.2022.S.24.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**XAKIMOV FARRUX TODJIDINOVICH**

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA  
MINTAQAVIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaq taraqqiyotining siyosiy muammolari”

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract  
of the Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science**

**Xakimov Farrux Todjidinovich**

Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish omili sifatida ..... 3

**Хакимов Фаррух Тоджидинович**

Цифровая трансформация в государствах Центральной Азии как фактор развития регионального сотрудничества ..... 25

**Khakimov Farrukh Todjidinovich**

Digital transformation in Central Asian states as a factor of development of regional cooperation ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных научных работ**

**List of published scientific works ..... 53**

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.11/25.08.2022.S.24.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**XAKIMOV FARRUX TODJIDINOVICH**

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA RAQAMLI  
TRANSFORMATSIYA MINTAQAVIY HAMKORLIKNI  
RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA**

23.00.04 – “Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari”

**SIYOSIY FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ss543 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (resume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uwed.uz](http://www.uwed.uz)) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo'rayev Qodir Asadovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yovkochev Shuxrat Akmalovich**  
siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolov Aktam Xatamovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.11/25.08.2022.S.24.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "18" 07 soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 54-uy. Tel.: (99871) 267-67-69; faks: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz)).

Dissertatsiya bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 019 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 54-uy. Tel.: (99871) 267-67-69; faks: (99871) 267-09-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11" 07 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "11" 07 dagi 11 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.M.Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tanx fanlari doktori, professor

**U.R.Dustov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar nomzodi

**A.P.Seitov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, sotsiologiya fanlar doktori, professor

## I. KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda raqamlashtirish va raqamli transformatsiya barcha sohalarni qamrab olgan bo‘lib, davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim mavzulardan biriga aylandi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davri va undan so‘ng raqamli texnologiyalarning roli sezilarli darajada o‘ydi, bu esa samarali raqamlashtirish siyosati va raqamli transformatsiyaning rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhimligini ko‘rsatdi.

Darhaqiqat, raqamli transformatsiya jamiyatni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini ta‘minlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi qator imkoniyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish maqsadida qator strategiyalar va dasturlar qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa konseptual-huquqiy hujjatlar mamlakatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

O‘zbekistonning raqamlashtirish siyosati va uning mintaqaviy jihatlari mamlakatning nafaqat texnologik landshaftini belgilashda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirishda, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O‘zbekistonning raqamlashtirish siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida raqamli sohadagi hamkorlikni jadallashtirishga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston tomonidan mazkur sohada ilgari surilgan qator tashabbuslarning amalga oshirilishi mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaga mustahkam zamin yaratmoqda.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, raqamli texnologiyalardan o‘zaro manfaatli foydalanishga qaratilgan bir qancha tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston yetakchisi tomonidan mazkur yo‘nalishda ilgari surilgan asosiy mintaqaviy tashabbuslardan biri raqamli o‘zaro bog‘liqlik borasida “Yevropa jamoasi” mexanizmidan foydalangan holda rivojlangan davlatlar va strategik hamkorlar bilan birgalikda “Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi”ni ishlab chiqish va amalga oshirish hisoblanadi.<sup>1</sup>

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqada raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish maqsadida turli darajalarda hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga, barcha beshta Markaziy Osiyo davlatlari – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikistonni qamrab olgan yagona

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev, Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – 508-bet.

Markaziy Osiyo raqamli strategiyasini ishlab chiqishga kuchli zarurat borligini alohida ta'kidlash lozim. Shu bois, "Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi" – mintaqaviy raqamli strategiyani tez orada ishlab chiqish va uni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiyaning ijobiy dinamikasi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirish va rivojlantirishda o'ziga xos salohiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlarining raqamli transformatsiya sohasidagi joriy chora-tadbirlari va milliy strategiyalari amalga oshirilayotganligiga qaramay, samarali raqamli transformatsiya va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hal qilinishi kerak bo'lgan bir qancha masalalar mavjud. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalardan barcha sohalarda foydalanish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish, jumladan, transchegaraviy savdoni jadal raqamlashtirish Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda dolzarb ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni va 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-sonli qarori hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi" loyihasini ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** So'nggi yillarda jamiyatning raqamli transformatsiyasi va raqamlashtirish mavzularida ham mahalliy, ham xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, mazkur izlanishlarda mavjud muammolar asosan raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini rivojlantirish masalalari kontekstida o'rganilmoqda. Xususan, o'zbekistonlik olimlar R.Ayupov, M.Bakiyeva, S.Gulyamov, N.Rustamov, Sh.Fayziyev, A.Shermuxamedov va boshqalarning tadqiqotlarida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamlashtirishning turli masalalari qamrab olingan<sup>2</sup>. Shuningdek, A.Fayzullayev, Sh.Arapov va boshqalar xalqaro munosabatlarda raqamli diplomatiya masalalarini, R.Maxmudov va boshqalar xalqaro munosabatlarning raqamli jihatlarini, F.Sattorov esa raqamli texnologiyalarning

---

<sup>2</sup> Аюпов, Р., Бакиева, М., Файзиёв, Ш., Болтабоева, Г. Ўзбекистонда электрон бизнес: муаммолар ва ечимлар. – Т.: ТМИ, 2016. – 443 б.; Рустамов, Н. Трансформация жараёнлари ва рақамли трансформациянинг бугунги кундаги аҳамияти // Рақамли иқтисодийот. – 2023. - №5. – б. 93-100.; Гулямов, С., Шермухамедов А. Проблемы развития цифровой экономики в Узбекистане // Рақамли иқтисодийот ва ахборот texnologiyalari. 2023. – № 3.– б. 28-33.

jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o‘rni siyosiy-falsafiy yondashuvlar orqali o‘rganishgan.<sup>3</sup>

O‘zbekistonning raqamlashtirish va axborotlashtirish sohalaridagi siyosati N.Jo‘rayev, Sh.Mirodova, F.Mo‘minova, M.Munavvarov, F.Mo‘minov, Sh.To‘rayev, X.Xaydarova kabi olimlar tomonidan axborot xavfsizligi va axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Mazkur mualliflarning asarlarida mamlakatda barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta‘minlashda samarali axborot siyosatining ahamiyati yuqori baholangan.<sup>4</sup>

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik, mintaqaviylashuv va intergatsiya mavzularida U.Azizov, R.Alimov, I.Boboqulov, T.Dadabayev, Q.Jo‘rayev, M.Raximov, F.Tolipov, A.Umarov, U.Hasanov kabi o‘zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan bo‘lsa,<sup>5</sup> xorijlik tadqiqotchilar – F.Buranelli, A.Kajenova, S.Kornell, F.Starr va boshqalar Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaga yondashuvlari hamda mintaqaviylashuvning zamonaviy tendensiyalarini o‘rganishgan.<sup>6</sup>

Bundan tashqari, o‘zbekistonlik tadqiqotchilar I.Abdullayev, Sh.Avazov, B.Avliyokulov, M.Asadova, S.Axmedov, G.Kuldosheva, D.Mirdjalilova, N.Yusupdjanova va boshqalar tomonidan raqamli transformatsiya va davlatlarning raqamlashtirish siyosatiga oid tadqiqotlar olib borilgan.<sup>7</sup>

---

<sup>3</sup> Faizullaev, A. (2024). Digital Diplomacy of the Central Asian Countries, in Corneliu Bjola, and Ilan Manor (eds), *The Oxford Handbook of Digital Diplomacy*, Oxford Handbooks; Арапов, Ш. (2023). Цифровая дипломатия как инструмент расширения многостороннего диалога и сотрудничества: на примере ШОС. *Узбекистан – стратегия 2030 с точки зрения молодых ученых: экономика, политика и право*, 1(1), 6–11.; Sattarov, F. (2023). Technology and the Distribution of Power. In *Technology and Sustainable Development* (pp. 203-214). Routledge.; Махмудов, Р. (2021). Пандемия коронавируса и переход к эпохе доминирования цифрового капитала. *Вестник Удмуртского университета. Социология. Политология. Международные отношения*, 5(3), 305-310.

<sup>4</sup> Жўраев, Н. (2007). Ахборот-психологик хавфсизлик: тажриба ва муаммолар. *Жамият ва бошқарув*, 1, 16-19.; Мировова, Ш. Проблемы обеспечения информационной безопасности в Республике Узбекистан в условиях глобализации. – Т.: 2008. 191 с.; Муминова, Ф. (2019). Функционирование онлайн-СМИ Узбекистана. Аудиовизуальные медиа в условиях трансформации социо-культурной среды: материалы междунар. науч.--практ. конф., Минск, 5 апр. 2019 г./ <https://elibrary.bsui.by/bitstream/123456789/219018/1/116-118.pdf>; Мунавваров, М. Императивы внешней политики Республики Узбекистан в условиях глобализации и информатизации международных процессов. – Т.: АГОС, 2007. – 69 с.; Мўминов, Ф. Ахборот хавфсизлиги ва ижтимоий тараққиёт // *Ўзбекистон матбуоти*, - 2007. - №6. – б. 6-7.; Тўраев, Ш. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларни ахборот-психологик хуружлардан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари – Т.: Турон замин зиё 2016 - 96 б.; Хайдарова, Х. Ахборотлашган жамият шароитида отаоналарнинг виртуал-педагогик маданиятини ривожлантириш масалалари. Монография. –Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi”, 2022. – 216 б.

<sup>5</sup> Azizov, U. (2017). *Regional integration in Central Asia: From knowing-that to knowing-how*. *Journal of Eurasian Studies*, 8(2), 123-135.; Алимов, Р. (2005). Центральная Азия: общность интересов. Т.: “Шарк”, 464 с.; Bobokulov, I. (2006). Central Asia: is there an alternative to regional integration? *CentralAsian Survey*, 25(1), 75-91.; Dadabaev, T. (2019). Uzbekistan as Central Asian game changer? Uzbekistan’s foreign policy construction in the post-Karimov era. *Asian Journal of Comparative Politics*, 4(2), 162-175.; Juraev, S. (2024). Current issues of scientific analytical and fundamental research of international relations and foreign policy. *Oriental Journal of Social Sciences*, 4(03), 1-12.; Rakhimov, M. A. (2018). Complex regionalism in Central Asia: Local, regional, and global factors. *Cambridge Journal of Eurasian Studies*, 2, J6Y3O7.; Khasanov, U. (2022). On Changing Political Environment of Modern Central Asia. *Dialogue Quarterly*, 23(3-4), 43-52.; Umarov, A. (2020). Central Asia: Construction of the New Regional Security Complex? *The Journal of Cross-Regional Dialogues/La Revue de dialogues inter-régionaux*. Special Issue, 69-82.; Толипов Ф. Большая стратегия Узбекистана в условиях геополитической и идеологической трансформации в Центральной Азии. – Т.: Фан. – 2005. с. 153.; Жураев К. Ўзбекистон Республикаси ва жаҳон ҳамжамияти. – Т.: “Oltin meros press”, 2024. 465 б.

<sup>6</sup> Buranelli, F. C. (2021). Central Asian regionalism or central Asian order? Some reflections. *Central Asian Affairs*, 8(1), 1-26.; Cornell, S. E., & Starr, S. F. (2018). Regional cooperation in Central Asia: Relevance of world models. *Central Asia-Caucasus Analyst*. <https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13547-regional-cooperation-in-central-asia-relevance-of-world-models.html>.; Kazhenova, A. (2024). Leaders Matter: Regional Integration in Central Asia. *Revista Finanzas y Política Económica*, 16(2), 489-517.;

<sup>7</sup> Mirdjalilova, D. Sh., Yusupdjanova, N. U., and Asadova, M. S. (2021). Digitalization of the Republic of Uzbekistan: current state and development trends. *ISJ Theoretical and Applied Science*, 10 (102), 819-824.

Raqamli transformatsiya hamda mazkur sohada hamkorlikning mintaqaviy integratsiyaga ijobiy ta'sirlari to'g'risida Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar olimlari – A.Abasova, M.Abek, N.Aytimbetov, T.Babayev, K.Bariktabasov, A.Beymisheva, U.Brimkulov, Y.Yeraliyeva, N.Imaraliyev, K.Karimshakov, M.Kurmangali, A.Maltabarov, A.Matveyeva, A.Muratbekova, M.Saribayev, B.Sulaimanova, A.Tajiyev, A.Sharafeyeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari mavjud.<sup>8</sup>

O'z navbatida xorijiy tadqiqotchilarning Markaziy Osiyoda savdo aloqalarini raqamlashtirish bo'yicha, shu jumladan, transchegaraviy raqamli (qog'ozsiz) savdo, elektron tijorat va raqamli savdoni osonlashtirish kabi mavzulardagi (Y.Vang, K.Karimshakov, M.Leviston, R.Pomfret, B.Sulaimanova, A.Tajiyev, A.Sharafeyeva, B.Yan) ilmiy izlanishlari e'tiborga molik.

Shuningdek, qator xorijlik olimlar – Q.Abbas, Y.Vang J.Velser, J.Gonzalez, H.Demirkan, A.Michelle, F.Daniyel, G.Ingram, S.Mun, M.Nelson, R.Pomfret, A.Razzaq, C.Tomson, J.Ure, X.Xong, B.Yan va boshqalar tomonidan raqamli transformatsiya, davlatlarning samarali raqamlashtirish siyosati hamda raqamli o'zaro bog'liklik va mintaqaviy hamkorlik masalalari bo'yicha izlanishlar olib borilgan.<sup>9</sup>

Qolaversa, mavzuga oid muhim manbalar qatorida xalqaro tashkilotlar – BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP), BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun Maxsus dasturi (SPECA), BMTning Elektron hukumat tadqiqoti, Osiyo taraqqiyot banki, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) tomonidan tayyorlangan Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya va raqamlashtirish mavzularidagi yillik hisobot va tadqiqotlar mavjud.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya va uning mintaqaviy hamkorlikka ta'siri mavzusidagi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga oid adabiyotlarni ikki asosiy guruhga, jumladan ilmiy-tadqiqot ishlari va xalqaro tashkilotlarning hisobotlariga ajratish mumkin.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining raqamlashtirish siyosati va raqamli transformatsiyaning mintaqaviy hamkorlikka ta'siri masalalari tadqiqotchilar tomonidan kompleks tarzda o'rganib chiqilmagan.

---

<sup>8</sup> Абасова, А. А., Абек, М. А., Имаралиев, Н. Внешнеполитический аспект в обеспечении безопасности и противодействия угрозам кибертерроризма в Республике Казахстан и Кыргызской Республике // Постсоветские исследования. 2023;6(6):639-650.; Айтымбетов, Н., Нышанбаев, Н. (2022). The impact of the digitalization process on democratic political institutions and public administration: in the example of the republic of Kazakhstan. *Аль-Фараби*, 77(1), 142-151.; Karymshakov, K., and Sulaimanova, B. (2023). *Trade Facilitation, Infrastructure, and International Trade in Central Asian Countries*. Asian Development Bank.; Matveeva, A. (2023, April 13). *A New Opening for EU–Central Asia Relations?* <https://carnegieeurope.eu/2023/04/13/new-opening-for-eu-central-asia-relations-pub-89454>.; Muratbekova, A. (2023). *Digital Progress in Central Asia*. Eurasian Research Institute. <https://www.eurasian-research.org/publication/digital-progress-in-central-asia/>.; Tazhiyev, A. (2022). *Digital solutions centre for sustainable development: options for operational modalities*. <https://repository.unescap.org/bitstream/handle/20.500.12870/4759/ESCAP-2022-WPr-Digital-solutions-centre-sustainable-development.pdf?sequence=1&isAllowed=y>.; Sharafeyeva, A. (2023). *Impact of High Trade Costs and Uncertain Time to Trade on Exports from Five Central Asian Countries*. Asian Development Bank.; Maltabarov, A. A., & Saribaev, M. C. (2023). Digital Transformation of the Countries of the Central Asian Region: the Path to Regional Integration?. *Известия. Серия: Международные отношения и регионоведение*, 52(2), 1-18.; Kurmangali, M., Yeraliyeva, Y., and Beimisheva, A. (2024). Digitalization and Artificial Intelligence in Central Asia: Governmental Responses and Further Implications. *Public Policy and Administration*, 23(2), 146-159.

<sup>9</sup> Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot doirasida ilmiy va rasmiy manbalar, jumladan xalqaro tashkilotlarning yillik va davriy hisobotlaridan foydalangan holda Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining va raqamlashtirish siyosatining qiyosiy tahlilini amalga oshirish maqsadida raqamli transformatsiyaning ilmiy-nazariy mohiyati, davlatlar raqamlashtirish siyosatining samaradorligini baholash mezonlari, raqamlashtirish siyosati bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va raqamli transformatsiyaning mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaga ta'siri bo'yicha kompleks tadqiqot amalga oshirildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining "Zamonaviy xalqaro munosabatlar va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining mintaqaviy hamkorlikka ta'sirini baholash hamda raqamli texnologiyalar asosida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli transformatsiya va raqamlashtirish tushunchalarining ilmiy-nazariy mohiyatini hamda nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

raqamli transformatsiya asosida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va raqamli texnologiyalarni ustuvor sohalarga tatbiq qilish orqali mintaqaviy integratsiyaga erishish bo'yicha nazariy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish;

Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, mazkur davlatlarning raqamlashtirish bo'yicha milliy strategiyalari va maqsadlarini qiyosiy tahlil qilish hamda soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan dolzarb muammolarni o'rganish;

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda transc chegaraviy savdoni raqamlashtirishning ahamiyatini "case study" ilmiy-tadqiqot usuli orqali ilmiy asoslantirish;

zamonaviy ilmiy-texnologik jarayonlar va ularning mohiyatini chuqur o'rganib chiqqan holda raqamlashtirish sohasidagi hamkorlikning Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati va istiqbollarini asoslash hamda mazkur sohada hamkorlikni jadallashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** Markaziy Osiyo davlatlarida yuz berayotgan raqamli transformatsiya va mintaqaviylashuv jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Markaziy Osiyo davlatlaridagi raqamli transformatsiyaning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga ta'siri tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyadagi ilmiy tahlillarni amalga oshirishda hamda uning xulosalarini shakllantirishda tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, tarixiy tahlil, kontent-tahlil, statistik tahlil, institutsional tahlil, kuzatuv, "case study" va boshqa ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Raqamli transformatsiya tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati va uni tadqiq qilish bo'yicha turli yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda raqamli transformatsiyaning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan;

hozirgi o'zgaruvchan geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo davlatlarida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda samarali raqamli transformatsiyaga erishish bo'yicha tavsiyalar Raqamli transformatsiya indeksini ilmiy-metodologik modelini shakllantirish orqali ishlab chiqilgan. Raqamli transformatsiya indeksi o'rtacha tortilgan qiymat usulida muayyan davlatning ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatgichlari va ma'lumotlari tegishli mustaqil omillarning ta'sirida o'zgarib borishi isbotlangan;

Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, ularning milliy dastur va strategiyalari, raqamlashtirish siyosatining o'ziga xos jihatlari va maqsadli ko'rsatgichlari qiyosiy tahlil qilingan;

raqamli transformatsiya va uning siyosiy jihatlari mintaqaviy hamkorlikning neofunksionalizm nazariyasi hamda Raqamli o'zaro bog'liqlik indeksining ilmiy-metodologik modelini ishlab chiqish orqali ilmiy asoslangan. Jumladan, Raqamli o'zaro bog'liqlik indeksini modellashtirishda muayyan davlatning ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatgichlari va ma'lumotlari o'rtacha tortilgan qiymat usulida tegishli mustaqil omillarning ta'sirida o'zgarib borishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

raqamli transformatsiya va raqamlashtirish bo'yicha fundamental tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda zamonaviy konseptual va metodologik asoslar ilmiy o'rganilib, konseptual qarashlarning xususiyatlari bo'yicha tizimli tadqiqot olib borildi; raqamlashtirish va raqamli transformatsiya tushunchalariga ilmiy ta'rif berildi; yangicha yondashuvlar orqali, jumladan, davlatlarning Raqamli transformatsiya indeksini ilmiy-metodologik modellashtirish orqali Markaziy Osiyo davlatlarida raqamli transformatsiya va raqamlashtirish siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ilgari surildi;

O'zbekiston va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlarining taraqqiyot strategiyalari va raqamlashtirishga oid milliy dastur va strategiyalarini yanada takomillashtirish, shuningdek Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirish hamda mintaqa davlatlarining samarali raqamlashtirish siyosatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish va shu orqali mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish bo'yicha nazariy-metodologik takliflar berildi;

barcha beshta Markaziy Osiyo davlatlarini qamrab olgan yagona Markaziy Osiyo raqamli strategiyasini ishlab chiqish, mintaqada raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirish hamda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish yuzasidan takliflar mintaqaviy integratsiyaning neofunksionalizm nazariy yondashuvi va davlatlarning Raqamli o'zaro bog'liqlik indeksini ilmiy-metodologik modellashtirish orqali erishilgan natijalar asosida ishlab chiqildi;

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda transchegaraviy savdoni raqamlashtirishning ahamiyati “case study” ilmiy-tadqiqot usuli orqali asoslantirildi hamda uning natijalari asosida taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarning uslubiy asosga egaligi, ishlab chiqilgan xulosa va takliflarning tashqi siyosat hamda raqamlashtirish sohasidagi vakolatli idoralar va tashkilotlardan o‘tganligi va tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati raqamlashtirish siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirish, mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda, shuningdek “Siyosatshunoslik”, “Raqamli diplomatiya”, “Axborot xavfsizligi”, “Geosiyosat”, “O‘zbekiston Respublikasining qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalari” kabi fanlarni o‘qitish va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Markaziy Osiyo davlatlaridagi raqamli transformatsiya va raqamlashtirish siyosatiga baho berishda, undagi muammolarni aniqlash hamda raqamli texnologiyalarning mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirishda foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonning raqamlashtirish sohasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslari” hamda “Markaziy Osiyoda raqamli transformatsiyaning mintaqaviy xususiyatlari”, deb nomlangan paragraflarida ishlab chiqilgan xulosalar, bildirilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasi faoliyatida, jumladan, 2023-yil 14-dekabrda o‘tkazilgan “O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi jismoniy va yuridik shaxslarining murojaatlarining bajarilishi holati” mavzusidagi hamda 2024-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan madaniyat sohasidagi hamkorlikning hozirgi holati va istiqbollari” mavzusidagi Qo‘mita eshituvlarini tashkil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo‘mitasining 2024-yil 9-oktyabrdagi 04/6-10-2474-sonli dalolatnomasi).

Shuningdek, dissertatsiya doirasida olib borgan ilmiy izlanishlar, jumladan mamlakatimizda “elektron hukumat” tizimini yanada rivojlantirish va elektron davlat xizmatlarining ulushini oshirish hamda Markaziy Osiyoda yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish kabi yo‘nalishlarda bildirilgan taklif va tavsiyalar “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni va 2022-yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” Davlat dasturining I – “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali

xalqparvar davlat barpo etish” yo‘nalishining 9-maqsadi 31-bandi hamda VII – “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish” yo‘nalishining 94-maqsadi 352-bandini ishlab chiqishda hamda takomillashtirishda foydalanilgan (“Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2024-yil 2-oktyabrdagi 483-sonli dalolatnomasi).

Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta ilmiy maqola (xususan, 7 tasi xorijiy impakt-faktorga ega jurnallarda, 5 tasi milliy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, ilovalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 150 betni tashkil etdi.

## II. DISSYERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, o‘rganilganlik darajasi asoslangan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, izlanish uslublari tavsiflangan; tadqiqot obyekti va predmeti, dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan; ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Raqamli transformatsiya va mintaqaviy hamkorlik masalalarini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari**” nomli birinchi bobida ilmiy va rasmiy manbalarni o‘rganish asosida raqamli transformatsiya va raqamlashtirishni o‘rganishning ilmiy-nazariy mohiyati, raqamli transformatsiya va davlatlar raqamlashtirish siyosatining samaradorligini baholash mezonlari, raqamlashtirish siyosati bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi hamda raqamli transformatsiya orqali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari o‘rganilgan va raqamli texnologiyalarni ustuvor sohalarga tadbiiq qilish natijasida mintaqaviy integratsiyaga erishi bo‘yicha nazariy yondashuvlar kompleks tahlil qilingan.

Jumladan, raqamli transformatsiya va raqamlashtirishning nazariy asoslari, mazkur tushunchalarning ta’riflari hamda davlatlar samarali raqamlashtirish siyosatining nazariy jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt kabi yangi texnologiyalarning raqamli transformatsiyadagi o‘rni, ijtimoiy ta’siri va axloqiy oqibatlarini mavzulari raqamlashtirish va raqamli transformatsiyaning istiqbolda muhim ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlari bo‘lishi ta’kidlangan.

Ma'lumki, raqamli transformatsiya va davlatning raqamlashganlik darajasini baholash bo'yicha xalqaro indekslar mezonlari va o'lchovlari samarali vosita hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishida ham Markaziy Osiyo davlatlarining raqamlashtirish siyosatini qiyosiy tahlil qilishda ulardan keng foydalanildi. Jumladan, BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi, Jahon bankining "GovTech" yetuklik indeksi, Xalqaro elektraloqa ittifoqining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish indeksi, Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi, Tarmoq tayyorligi indeksi va boshqalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish sohalarida xalqaro tan olingan va tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan asosiy indeksleri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, dissertant tomonidan muayyan davlatlarning raqamli transformatsiyasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanganlik darajasini baholovchi hamda raqamlashtirishning turli sohalarini qamrab olgan xalqaro indekslar va mezonlar asosida Markaziy Osiyoning barcha beshta davlatlaridagi raqamli transformatsiyaning joriy holati va istiqbollari baholash uchun yangi mezonlar taklif etildi va ma'lumotlarning qiyosiy tahlilini o'rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalangan holda raqamli transformatsiya indeksi ishlab chiqildi.

Qolaversa, mazkur bobda raqamli transformatsiya va raqamlashtirish mavzusidagi Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga oid BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESCAP), BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun Maxsus dasturi (SPECA), BMTning Elektron hukumat tadqiqoti (United Nations E-Government Survey), Osiyo taraqqiyot banki, Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) va CAREC instituti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar yillik va davriy hisobotlari tahlil qilindi.

Xalqaro indekslar va mezonlar asosida yangi Raqamli transformatsiya indeksi modellashtirilgan bo'lib, mazkur ilmiy-metodologik yondashuv Markaziy Osiyo davlatlarining raqamli transformatsiya darajasini baholash imkonini beruvchi mezon sifatida ishlab chiqildi.



**1-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarining Raqamli transformatsiya indeksi 2020-2023-yy.<sup>10</sup>**

<sup>10</sup> Markaziy Osiyo davlatlarining Raqamli transformatsiya indeksi muallif tomonidan ishlab chiqilgan metodologiya asosida tayyorlandi.

Markaziy Osiyo davlatlarining raqamli transformatsiya indeksini hisoblash va 2020-2023-yillar oralig'ida mintaqa davlatlarida raqamli transformatsiya dinamikasini (1-rasmga qarang) baholash uchun statistik ma'lumotlarning qiyosiy tahlilini o'rtacha tortilgan qiymat usuldan foydalangan holda hisoblandi.

Bunda raqamli transformatsiya indeksini davlatlar hamda muayyan vaqt oralig'idagi o'zgarishlarni tegishli omillar va ko'rsatgichlar majmuasida quyidagi model orqali o'rtacha tortilgan qiymat usulida ifodalash mumkin:

$$DTI_{dy} = W_{GDP} \cdot GDP_{dy} + W_{HCI} \cdot HCI_{dy} + W_{EPI} \cdot EPI_{dy} + W_{IPR} \cdot IPR_{dy} + W_{MPU} \cdot MPU_{dy} + W_{TII} \cdot TII_{dy} + W_{CBPT} \cdot CBPT_{dy} + W_{OSI} \cdot OSI_{dy}$$

Bunda:

$DTI_{dy}$  – Raqamli transformatsiya indeksi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$W$  – o'rtacha tortilgan qiymat;

$GDP_{dy}$  – Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$HCI_{dy}$  – Inson kapitali indeksi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$EPI_{dy}$  – Elektron ishtirok indeksi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$IPR_{dy}$  – Internetdan foydalanish darajasi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$MPU_{dy}$  – Aholining mobil aloqa bilan ta'minlanganligi har 100 kishi hisobiga;

$TII_{dy}$  – Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$CBPT_{dy}$  – Transchegaraviy qog'ozsiz savdo ko'rsatgichi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida;

$OSI_{dy}$  - Onlayn xizmatlar indeksi tegishli davlat (d) va yil (y) davrida.

Shunday qilib, tegishli davlatning raqamli transformatsiya indeksi (DTI) yuqorida sanab o'tilgan sakkiz ta mustaqil omillarning o'rtacha tortilgan qiymati ( $W$ ) ta'sirida o'zgarib boradi. Ya'ni mustaqil omillarning o'rtacha ijobiy o'zgarishi o'rganilayotgan davlatning Raqamli transformatsiya indeksiga ijobiy ta'sir etishi 1-rasmda isbotini topdi.

Shuningdek, mazkur xalqaro tashkilotlarning davlatlar raqamlashtirish siyosatini samaradorligini baholash mezonlari hamda raqamlashtirish siyosati bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy misolida o'rganildi. Mazkur xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari shuni ko'rsatadiki, samarali raqamlashtirish siyosati, o'z navbatida, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga va aholi farovonligini ta'minlashga, ular uchun qulay davlat xizmatlarini yaratish hamda yuqori daromadli biznes muhitining shakllanishiga zamin yaratadi. Bunda nafaqat texnologiyalar o'zi, balki davlatlarning samarali, chuqur o'ylangan va uzoqni ko'zlagan raqamlashtirish siyosati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur bobda Markaziy Osiyoda 2017-yildan e'tiboran mintaqaviy hamkorlikka bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgarganligi, natijada yangi, pragmatik va konstruktiv yondashuv shakllanib, Markaziy Osiyoda "yangi mintaqaviylashuv"

bosqichi boshlanganligi hamda bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqin, do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirish bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslari alohida ahamiyatga egaligi keng tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya va mazkur sohadagi funksional hamkorlik orqali Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida o‘zaro ishonch yanada mustahkamlanib, mintaqaviy siyosiy muloqot va hamkorlik uchun qulay siyosiy muhit shakllantirishi, natijada neofunksionalizm nazariy yondashuviga muvofiq hamkorlikning “spillover” ta’siri orqali mintaqada kengroq siyosiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslangan.



**2-rasm. O‘zbekistonning qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016-2023-yillardagi umumiy tashqi savdo aylanmasi (mln.AQSh dollari).<sup>11</sup>**

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Markaziy Osiyo davlatlarining raqamlashtirish bo‘yicha milliy strategiyalari**” deb nomlangan bo‘lib, unda Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, milliy dastur va strategiyalar, raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari hamda o‘rta va uzoq muddatlarda kutilayotgan maqsadli ko‘rsatgichlar qiyosiy tahlil qilingan.

Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni 2020-2022-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Raqamli Qozog‘iston” Davlat dasturi, “Raqamli Qirg‘iziston” 2019-2023-yillarga mo‘ljallangan Raqamli transformatsiya konsepsiyasi, “Tojikiston Respublikasining Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi”, “2030-yilga mo‘ljallangan Tojikiston Respublikasining Milliy taraqqiyot strategiyasi”, “2019-2025-yillarda Turkmanistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish konsepsiyasi” kabi milliy strategiyalar, konsepsiya va dasturlar qiyosiy o‘rganilgan. Mazkur tashabbus va amaliy say’-harakatlar, ayniqsa elektron hukumat sohasidagi chora-tadbirlar muvaffaqiyatli

<sup>11</sup> “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan. <https://strategy.uz/index.php?news=1975>

amalga oshirishlari bilan Markaziy Osiyo davlatlarida demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, jumladan, elektron hukumat orqali davlat boshqaruvini isloh qilish, uning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash hamda inklyuziv jamiyat barpo etish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari sezilarli natijalarga erishganligi dalillangan.

Mazkur bobda Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari, raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan milliy strategiyalar va dasturlarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan:

- Markaziy Osiyo davlatlaridan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda "raqamli strategiya"lar ("Raqamli O'zbekiston – 2030", "Raqamli Qozog'iston", "Raqamli Qirg'iziston") amalga oshirilayotgan bo'lsa, Tojikiston va Turkmanistonda raqamlashtirish strategiyalariga kengroq milliy taraqqiyot va raqamli iqtisodiyot dasturlari doirasida ustuvor ahamiyat berilgan;

- qator xalqaro reyting va hisobotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston qator sohalarda mintaqaviy va global darajalarda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Bunday ijobiy o'zgarishlar O'zbekistonda ham yaqqol ko'zga tashlanadi, keyingi o'rinni Qirg'iziston egallaydi., Biroq Tojikiston va Turkmanistonda raqamli rivojlanish bo'yicha vaziyat jahon o'rtacha darajasidan birmuncha pastligicha qolmoqda. Dissertant tomonidan taklif etilgan yangi mezon va ma'lumotlarning qiyosiy tahlilini o'rtacha tortilgan qiymat usulidan foydalangan holda ishlab chiqilgan raqamli transformatsiya va raqamli o'zaro bog'liqlik indeksleri natijalari yuqoridagi jarayonlarni yaqqol tasdiqlaydi.

- Markaziy Osiyo davlatlarining milliy dastur va strategiyalarida istiqbolda kutilayotgan maqsadli ko'rsatkichlari asosan 2030-yilga mo'ljallangan bo'lib, ularda Internet tezligi va qamrovini oshirish; hududlarni raqamlashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) mahsulotlari va xizmatlari eksporti hajmini oshirish; AKT sohasida malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro reytinglar, jumladan BMTning Elektron hukumat indeksida yetakchi davlatlar qatoriga kirish kabi maqsadlar ko'zda tutilgan.

Dissertatsiyaning mazkur bobida, shuningdek, Markaziy Osiyoda davlatlarining samarali raqamlashtirish siyosatiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar tizimli tarzda ochib berilgan. Muallifning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlarida raqamlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida yuqori tezlikdagi Internetdan foydalanish va uning qamrovi bo'yicha mavjud muammolar, Markaziy Osiyoda ham mintaqaviy darajada, ham mahalliy darajada raqamli tafovutning mavjudligi, aholining raqamli savodxonligi va ko'nikmalaridagi tafovut, mahalliy tillardagi raqamli kontentning yetarli emasligi, kibernetika va mahalliy xavfsizlik hamda shaxsga doir va davlat ahamiyatiga ega ma'lumotlarni samarali himoya qilishdagi muammolar, mintaqa mamlakatlari milliy normativ-huquqiy hujjatlarining uyg'unlashmaganligi, inklyuziv mintaqaviy hamkorlikning mavjud emasligi kabi muammolarni qayd etish mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlarining taraqqiyot strategiyalari va raqamlashtirishga oid milliy dastur va strategiyalarini yanada takomillashtirish, Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o'zaro bog'liqlikni

shakllantirish hamda mintaqa davlatlarining samarali raqamlashtirish siyosatiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillarni bartaraf etish va shu orqali mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish bo‘yicha asoslantirilgan nazariy-metodologik hamda amaliy takliflar ilgari surilgan.

Tadqiqot ishining “**Markaziy Osiyoda raqamlashtirish sohasida hamkorlik va uning mintaqaviy bog‘liqlikni ta’minlashdagi o‘rni**” deb nomlangan uchinchi bobida Markaziy Osiyoda mintaqaviylashuvning zamonaviy tendensiyalari va raqamli transformatsiyaning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati hamda raqamli transformatsiyaning mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish orqali Markaziy Osiyo davlatlarining samarali raqamlashtirish siyosati va mintaqada raqamli o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirish mintaqaviy integratsiyani faol ilgari surishga xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Shuningdek, O‘zbekiston va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlarining transchegaraviy savdoni raqamlashtirish bo‘yicha amaliyotlari va erishgan natijalari qiyosiy tahlil qilingan hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda transchegaraviy savdoni raqamlashtirishning ahamiyati ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligi hozirgi bosqichini hisobga olgan holda savdo bilan bog‘liq xizmatlar va mintaqalararo savdoda raqamli (qog‘ozsiz) import va eksport tartiblarini ta’minlash va ilgari surish eng yaxshi amaliyot hisoblanishi dalillangan.



**3-rasm. Markaziy Osiyoda savdoni osonlashtirish va qog‘ozsiz savdo (savdoni raqamlashtirish), 2023-yil<sup>12</sup>**

Mintaqada strategik manfaatlari to‘qnashgan yirik geosiyosiy kuch markazlari va alohida davlatlar tomonidan Markaziy Osiyoda raqamli bog‘liqlikni rivojlantirish

<sup>12</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Raqamli va barqaror savdoni osonlashtirish bo‘yicha 2023-yilgi global tadqiqoti. <https://www.untfsurvey.org/region?id=ESCAP>

va istiqbolli loyihalarni amalga oshirish takliflari ilgari surilayotganligi geosiyosiy raqobat sharoitida tarqoq va fragmentar xarakterdagi tashabbuslarga olib kelishi, mintaqaviy integratsiyaga to'sqinlik qilishi, ehtimoliy keskinliklar va hatto, mojarolarni yuzaga keltirishi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy raqamli integratsiya platformasi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan Markaziy Osiyo uchun inklyuziv raqamli kun tartibini ishlab chiqish zarurati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etishi e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, barcha Markaziy Osiyo davlatlarini qamrab olgan yagona Markaziy Osiyo raqamli strategiyasini ishlab chiqish, mintaqada raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirish hamda mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertantning fikricha, mintaqaviy o'zaro bog'liqlikka erishish uchun Markaziy Osiyo davlatlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha umumiy siyosat va standartlarni ishlab chiqishda birgalikda harakat qilish; raqamli innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhitni rag'batlantirish orqali O'zbekistonni Markaziy Osiyoning texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiya markazi sifatida namoyon qilish; mintaq davlatlari o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarida ham raqamli o'zaro bog'liqligini rivojlantirish va mazkur sohada hamkorlikni jadallashtirishga qaratilgan kelishuvlarga erishish; Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat uchrashuvlarining institutsional tuzilmaga aylanishiga erishish hamda mazkur Maslahat uchrashuvlari doirasida mintaqaning raqamli o'zaro bog'liqligini rivojlantirish va hamkorlikni kengaytirish masalalarini kun tartibiga kiritish; kibertahdidlarga qarshi mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish va raqamli xavfsizlik choralari kuchaytirish; mintaqada integratsion jarayonlarni jadallashtirishda transchegaraviy savdoni raqamlashtirishning imkoniyatlaridan samarali foydalanish istiqboldagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Mazkur bobda, shuningdek, O'zbekistonning raqamlashtirish siyosati va uning mintaqaviy jihatlari nafaqat mamlakatning texnologik landshaftini, balki Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ham asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, raqamli texnologiyalardan o'zaro manfaatli foydalanishga qaratilgan bir qancha tashabbuslar ilgari surilgan bo'lib, ular nafaqat milliy raqamli transformatsiyani jadallashtirishga, balki Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida raqamli o'zaro bog'liqlikni va hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan mintaqaviy takliflarni ham qamrab olganligi ta'kidlangan. O'zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan asosiy mintaqaviy tashabbuslardan biri bu raqamli o'zaro bog'liqlik borasida "Yevropa jamoasi" mexanizmidan foydalangan holda "Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi"ni ishlab chiqishdir. Dissertantning fikricha, mazkur tashabbus O'zbekistonning mintaqaviy hamkorlik va raqamli sohada integratsiyani yanada chuqurlashtirishga sodiqligini ko'rsatadi. Taklif etilayotgan kun tartibi raqamli o'zaro bog'liqlikdagi asosiy muammolar va imkoniyatlarni hal qilishga, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlikdagi sa'y-harakatlarga zamin yaratishga qaratilgan. "Yevropa jamoasi" mexanizmi muayyan

mamlakat yoki mintaqada barqaror rivojlanish masalalarida muhim ustuvorliklarni aniqlashga qaratilgan, Yevropa Ittifoqining tegishli idoralari tomonidan muvofiqlashtirilgan hamda izchil sa'y-harakatlarni ko'zda tutgan tashabbuslardir. Bunda "Yevropa jamoasi" – Yevropa Ittifoqi, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar, xususan, ularning ijrochi tuzilmalari va davlat taraqqiyot banklari, shuningdek, Yevropa investitsiya banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan iborat. "Markaziy Osiyo uchun raqamli kun tartibi"ni ishlab chiqish uchun, garchi mintaqada "Yevropa jamoasi"dagi kabi tuzilmalar mavjud bo'lmasada, Markaziy Osiyo davlatlarining izchil sa'y-harakatlarini safarbar qilish imkonini beradi.

